

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KAXAROVA MOHIGUL YUSUFOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR NASRIDA O‘SMIRLAR RUHIYATI**  
**TASVIRI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**УДК: 811.113:512.133+87'1(575.1)**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**  
**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology**

**Kaxarova Mohigul Yusufovna**

Ingliz va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar ruhiyati tasviri..... 5

**Кахарова Мохигул Юсуфовна**

Описание психологии подростков в английской и узбекской детской  
прозе..... 23

**Kakharova Mohigul Yusufovna**

The Description of Teenagers' Psychology in English and Uzbek Children's  
Prose ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KAXAROVA MOHIGUL YUSUFOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR NASRIDA O‘SMIRLAR RUHIYATI**  
**TASVIRI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.4.PhD/Fil956 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jamilova Bashorat Sattorovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Axmedov Oybek Saparboyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Barotova Mubashirra Baratovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « 25 » mart soat 09<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 277 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 13 » mart kuni tarqatildi.

(2023-yil « 13 » mart dagi 23-09 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



**D.S.O'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**M.M. Jo'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida inson va jamiyat munosabati, ular orasidagi ijtimoiy-ruhiy bog‘liqliklar, ma’naviy va ruhiy olamning badiiy talqini ruhidagi asarlar yaratish imkoniyatlarini kengaytirganligi sababli azaldan ayriqcha qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Har bir yoshdagi qahramon ruhiyati aks etgan badiiy yuksak asarlar kitobxonga nafaqat estetik zavq, balki ruhiy va ma’naviy ozuqa beradi. Zero, adabiy vaziyatning shartlilik va metaforikligi, shakl va mazmun yaxlitligini tashkil etadigan poetik tizim va janraro munosabatni ilmiy talqin etish, badiiy adabiyot kontekstida bolalar nasri tahlili, o‘smirlar ruhiyati tasviri, yoshlar tarbiyasida adabiyotning estetik rolini ochish muhimligi ilmiy asoslashga imkon yaratadi.

Dunyo adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, uning estetikasida xarakter masalasi, o‘smirlar ruhiyatidagi evrilishlar, jamiyatda ularning o‘rni, tabiat va ijtimoiy hayotga munosabatining badiiy talqini, shuningdek, yozuvchi psixologiyasi, qahramon psixologiyasi masalalarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, o‘zbek bolalar nasrining o‘ziga xos xususiyatlari, qahramon ruhiyati tasvirida betakror uslubi bilan muhim o‘rinni egallagan ingliz adiblarining ijodi asarlarini o‘zbek bolalar nasri ustalarining qahramon yaratishdagi o‘ziga xosliklari bilan qiyosiy tadqiq etish, adiblar ijodidagi o‘smirlar ruhiyatini o‘rganish, badiiy asarlardagi bosh qahramonlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuklik sari intilishi ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga mustaqil mulohaza yuritish ko‘nikmasining shakllanishiga, kelajakka umid va ishonch bilan yashashga, ma’naviy olamining kamol topishiga xizmat qiladi.

Mustaqillik davri o‘zbek bolalar adabiyotida ma’naviy tiklanish jarayoni jahon va milliy bolalar adabiyotidagi o‘smirlar ruhiyati badiiy ifodasini chuqur tadqiq etish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Bunday asarlarda aks etgan psixologik tasvir teranligi yosh avlodni insoniy munosabatlar, qadriyatlar ruhida tarbiyalab borishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, mamlakatimizda “yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz”.<sup>1</sup> Shu ma’noda ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotining namunalari misolida ularda o‘smirlar ruhiyati ifodasini o‘rganish xalqimiz badiiy tafakkurining shakllanish tarixini yoritishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847- son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda O‘zbekiston Yoshlari Forumida so‘zlagan nutqidan. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – B.52.

5117- son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-son Qarori va mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon bolalar adabiyotshunosligida qahramon va obraz, mavzu va janriy taraqqiyot masalalari ingliz, Indoneziya, hind, rus hamda boshqa xalqlar adabiyoti materiallari misolida tadqiq etilgan. Bolalar adabiyoti xususiyatlari yo‘nalishida ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan.<sup>2</sup>

Jumladan, J.Tehrani, J.Brigs, D.Bats, B.Vardana, R.Ramya, D.Kristi, S.L.Beket, T.E.Engreyni<sup>3</sup> kabi jahon olimlari bolalar adabiyotiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgani diqqatga sazovordir.

N.V.Budur, E.I.Ivanova, S.A.Nikolayeva, T.A.Chesnokova, N.M.Demurova, I.N.Arzamastseva, Yu.Borev, N.D.Tamarchenko, Ye.I.Xalizev, A.B.Yesin<sup>4</sup> kabi olimlarning tadqiqotlarida ham bolalar nasri o‘rganilgan.

---

<sup>2</sup> Children’s Literature Grows Up A dissertation presented by Christina Phillips Mattson to The Department of Comparative Literature in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy in the subject of Comparative Literature. – Harvard University Cambridge, Massachusetts. – May, 2015. – 3-4p; Elmore Chelsea. “Young Adult Literature: The Reality on the Page” (2017). Selected Honors Theses. 88. <https://firescholars.seu.edu/honors/88> – 390 p.

Долженко Л.В., Савина Л.Н. Развитие концепции детства в русской литературе и критике XIX в.: Учеб. пособие к спецкурсу по детской литературе. – Волгоград: Перемена, 2001. – 3-10с.; Кузьмина М.Ю. Страхное в сказках К.Чуковского / Проблемы детской литературы. – Санкт-Петербург:1995. – С.57-69; Гоганова А.В. “Пожилые” дети в романе А.Платонова “Чевенгур” // Вестник Московского университета. Серия 9: Филология. 2016. №1, – 197 с.

<sup>3</sup>Tehrani J. The Phylogeny of Little Red Riding Hood, Scientific Journal, PLOS ONE. – 4 p.; Briggs J., Butts D. Popular Children’s literature in Britain. – London and New York: Published 2016 by Routledge. – 356 p.; Bayu Wardhana. Coping with Children Bulling Reflected in Charles Dicken’s Oliver Twist: an Individual Psychological Approach: Department of Education School of Teacher Training and Education Muhammadiyah University of Surakarta, 2016. – 11 p.; R. Ramya //Psychoanalytic Approach to the Characters in Roald Dahl’s Matilda, M.Phil Research Scholar Department of English Jamal Mohamed College, Trichy. 2019. – 1017-1020 p.; D. Kristy. Superhéroe. Manual de instrucciones. Libro de cartón – 16 Febrero 2017. – 10 p.; Sandra L. Beckett, Global and Historical Perspectives, Published December 17, 2009 by Routledge. – P.30.; Theresia Enny Anggraini. The Characteristics of Child-to-Adult Crossover Literature. DISSERTATION Presented in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Philosophy in the Graduate School of The Ohio State University, 2015. – 43 p.

<sup>4</sup> Будур Н.В., Иванова Э.И., Николаева С.А., Чеснокова Т.А.. Зарубежная детская литература. – Москва: Академия, 1998. – 300 с.; Демурова Н.М. Английская детская литература, – Москва: Диссертация, 1988. – 10 с.; Арзамасцева И.Н., Боров Ю., Эстетика. Теория литературы: Энциклопедический словарь терминов. – Москва: Астрель, 2003. – 575с.; Тамарченко Н.Д.Теория литературы // Роды и жанры. – Москва: ИМТИ РАН, 2003. – 228с.; Хализев В. Е. Теория литературы. – Москва: Выс. школа, 2002. – 397 с.; Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта–Наука, 2002. – 248 с.

O'zbek bolalar adabiyoti R.Barakayev, Q.Qahramonov, Z.Ibrohimova, M.Jumaboyev singari adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan. Sohaning ayrim jihatlarini o'rganish jarayoni, ayniqsa, istiqlool arafasi va mustaqillik yillarida jonlandi. Bolalar adabiyotining yetakchi xususiyatlari O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilova kabi olimlarning darsliklari, R.Barakayev, Z.Mamadaliyev, B.Nazarovning to'plamlari, bevosita o'zbek bolalar nasri, ayrim adiblar ijodiy mahorati, qissa va hikoyalar talqini A.Rasulov, Y.Solijonov, A.Sabirdinov, Z.Ibragimova, M. Qo'chqorovalarning o'quv qo'llanmalarini chop etish davom etmoqda.<sup>5</sup>

Jahon adabiyotshunosligida sarguzasht asarlar va psixoanalitik tahlillar M.Vollakot, H.Purnomo<sup>6</sup> singari olimlar tadqiqotlarida mavjud. Hatto bunday izlanishlarni A.Suyumov, M.Jumaboyev<sup>7</sup> singari o'zbek olimlarining faoliyatida ham kuzatish mumkin.

Detektiv asar xususiyatlari hamda diskurs stilistik yondashuvlarga oid masalalar L.Xarmon, P.Tsang, T.Todorov, S.Argashokova, M.Mikaelyan<sup>8</sup>, o'zbek adabiyotida Sh.S.Sulaymonov, N.Xudoyberganov<sup>9</sup> kabi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan.

Jahon avtobiografik yo'nalishida S.Sarkar, D.Ardhendu<sup>10</sup>, o'zbek adabiyotida A.Abrorov, R.Umurzoqov<sup>11</sup> singari adabiyotshunos olimlar va tadqiqotchilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgani diqqatga sazovordir.

---

<sup>5</sup> Barakayev R. Abdulla Avloniy va o'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2004. – B.158.; Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Fan, 1991. – B.120.; Qahramonov Q. Bolalikka oshufta ko'ngil. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014. – 40 b.; Ibrohimova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 120 b.; Ibrohimova Z. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2005. – 32 b.; Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 234 b. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. – Buxoro: Durdona, 2019. – 341 b.; Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Noshir, 2019. – 220 b.

Barakayev R., Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 160 b.; Barakayev R, Mamadaliyev Z. Anvar Obidjonning nurli ijodi. Bolalar olamining shaydosi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2017. – 20 b.; Nazarov B. Anvar Obidjon she'rlarida poetik go'zallik. Bolalar olamining shaydosi. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. –Toshkent, 2017. – 7 b.

Rasulov A. Betakror o'zlik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2009. – 137 b.; Solijonov Y., Lirika latofati, nasrning nazokati. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 108 b.; Sabirdinov A. Ma'naviyat va ma'rifat chashmalari. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 144 b.; Ibragimova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 47 b. Qo'chqorova M. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari (Esse, qissa, hikoya: tadqiq va talqin). – Toshkent: Muharrir, 2011. – 232 b.; Qo'chqorova M. "O'tmishdan ertaklar" tadqiqi. –Toshkent: Yangi asr avlod, 2016. – 144 b.

<sup>6</sup> Wollacott M. What Is Adventure Fiction? September 27, 2022.; Purnomo H. The Study of Psychoanalysis of Main Character in "The Adventures of Huckleberry Finn" by M.Twain. Jurnal Widyaloka Ikip Widya Darma | Vol. 5. | NO. 2 | Maret 2018. – 5p.

<sup>7</sup> Suyumov A., Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 209 b.

<sup>8</sup> Harmon L. //Journal of Literary Criticism, Comparative Linguistics and Literary studies. Agatha Christie's Poirot novels as fairy tales: Two case studies, ISSN: (Online) 2219-8237, (Print) 0258-2279, 2021.; P. Zhang. Comparative Literature: East & West //A Discourse Stylistic Approach to the Critics of Christie's Works" Vol.3. 2001. – 15p.; Todorov T.The Typology of Detective Fiction / <https://www.thefreshreads.com/the-typology-of-detective-fiction-summary/>; Argashokova S., Mikaelyan M. Verbalization of Concept of "Vigilante Justice" in Agatha Christie's Creative Work//Web of Conferences. 2018. – 4 p.

<sup>9</sup> Sulaymonov SH.S. O'zbek detektiv nasri: genezisi va tabiati. F.f.n.diss avtoref. Toshkent, 2002.

Xudoyberganov N. Jinoyat fosh etiladi. // "O'zbekiston madaniyati". – 1993 yil, 12 iyul.

<sup>10</sup> Somnath S. David Copperfield as an Autobiographical Novel// All About English Literature. 2021. – 4 p.; Ardhendu D. A Portrait of the Artist as a Young Man is an 'Aesthetic Autobiography' of James Joyce. July 3, 2011. – 3 p.

Ammo ingliz va o'zbek bolalar nasrida qahramonlar ruhiyati masalasi qiyosiy aspektda yaxlit monografik tarzda o'rganilmagan. Qahramon yaratish mahoratlarini o'rganish orqali ingliz va o'zbek bolalar nasrida badiiy psixologizm, xususan, o'smirlarning ruhiyati talqinlarini yanada mukammal va yorqin tasavvur etish mumkin.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy-tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek adiblari ijodida o'smirlar psixologiyasi ifodasi, yozuvchi psixologizmi muammosini monografik tizimini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz va o'zbek bolalar nasrining o'zaro ta'sir hamda hamkorlik qirralarini sarguzasht, detektiv, avtobiografik asarlar misolida tahlil etish;

qahramon ruhiyati tasviri jihatidan o'zbek bolalar nasridagi yangilanishlar va izlanishlarni, o'smirlar ruhiyatini talqin etishdagi uslubiy jihatlarni ingliz va o'zbek adiblari ijodi orqali tadqiq qilish;

ingliz va o'zbek yozuvchilarining detektiv va sarguzasht asarlaridagi o'smirlar obrazi talqinida milliy ruhiyat tasvirining o'ziga xos jihatlarini adiblar dunyoqarashi, yondashuv usullari, mahorati tahlili bilan bog'liqlikda aniqlash;

badiiy asarda qahramon ruhiyati ifodasi orqali o'smirlarga xos psixologik holatlar, obraz va tafakkurdagi shakllanish tadrijini ko'rsatib berish;

ingliz va o'zbek bolalar asarlarida bola-o'smir ruhiyatining badiiy ifodasidagi tasviriy vositalar hamda lingvopoetik xususiyatlarni dalillash;

ingliz va o'zbek bolalar adabiyotida jinoyat olamiga kirib qolgan o'smirlar ruhiyati talqinidagi o'ziga xosliklarni asoslash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida o'smirlar ruhiyati aks etgan ingliz va o'zbek detektiv, sarguzasht hamda avtobiografik qissa va romanlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o'zbek adiblarining turli yo'nalishdagi asarlarida o'smir ruhiy iztiroblarini badiiy talqin etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada transformatsion, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, funktsional-interpretatsion, lingvopoetik, tasniflash, psixoanalitik, biografik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar ruhiyati talqinidagi o'ziga xosliklarning qiyosiy ifodasi, adiblarning o'smir obrazini yaratishdagi ijodiy mahorati, nutq qatlamlari, turli ijtimoiy-tarixiy qarashlar to'qnashuvi, vaziyatning shartliligi va metaforik mohiyati, poetik chekinishlar kabi shakl unsurlarining mazmunga mutanosibligida namoyon bo'lishi aniqlangan;

---

<sup>11</sup> Abrorov A. O'zbek prozasida avtobiografik qissalar: Hozirgi o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligi. – Toshkent: Fan, 1984. – B.110.; Umurzoqov R. XX asr o'zbek qissachiligida bola obrazi. – Sharq yulduzi. – №4, 2014. – 70 b.

ingliz va o'zbek bolalar nasri kompozitsiyasi obrazlar tizimida g'oyaviy qarshi kurashga urg'u berilishi, lirik-intellektual uslubning qo'llanishi, gumanistik va demokratik g'oyalarning alohida ta'kidlanishi, epik hikoya qilish tarzining milliy xususiyati bilan belgilanganligi asoslangan;

ingliz va o'zbek bolalar nasridagi o'smirlar hayoti, jinoyat ko'chasiga kirib qolgan bosh qahramonlar ruhiyati, o'smirlikka o'tish davridagi o'ziga xos dunyosidagi o'zgarishlarning badiiy-estetik ifodasi, hayotda o'z o'rnini topishga intilishi, shaxs sifatida shakllanish modeli (muallif yaratgan model) teran ifodalangan sarguzasht-fantastik, detektiv, avtobiografik, ma'rifiy-ta'limiy asarlarning badiiy-kompozitsion, uslubiy o'ziga xosliklarini qiyoslash orqali namoyon bo'lishi dalillangan;

ingliz bolalar nasridagi bildungsroman asarlarini o'zbek adabiyotidagi ma'rifiy-ta'limiy romanlarga qiyoslab, ulardagi shaxs sifatida shakllanish jarayonining badiiy talqiniga xos umummilliy, umumadabiy, ijtimoiy-psixologik hamda mental-madaniy qirralar bilan belgilanganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar ruhiyati tahlili orqali bolalar adabiyotidagi uslubiy izlanishlar hamda badiiy tafakkur yangilanishlar jarayoni umumlashtirilgan;

sarguzasht va detektiv, avtobiografik qissa va romanlarda voqelik talqini, qahramon ruhiyatining ifoda usullarini qiyosiy o'rganish orqali bolalar nasrining uslubiy hamda janr xususiyatlari aniqlangan;

ingliz va o'zbek bolalar nasrining zamonaviy ko'rinishlari o'rganilib, badiiy-kompozitsion, axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-psixologik hamda mental-madaniy xususiyatlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, tadqiqotda zamonaviy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik yutuqlaridan kelib chiqqan holda chiqarilgan xulosalarning transformatsion, qiyosiy-tarixiy, tasniflash, qiyosiy-tipologik, funksional-interpretatsion, lingvopoetik, analitik, psixologik tahlil usullari orqali dalillanganligi, nazariy fikr va natijalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan xulosalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar psixologiyasi bilan bog'liq masalalarni hal qilishda, zamonaviy ingliz bolalar avtobiografik, sarguzasht, detektiv nasriga xos xususiyat va yetakchi tamoyillarni o'rganish bilan aloqador tadqiqotlarda mazkur ish muayyan darajada ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan respublika oliy o'quv yurtlarida "Yangi o'zbek adabiyoti", "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Hozirgi adabiy jarayon va o'zbek adabiy tanqidi", "Badiiy tahlil asoslari", "Bolalar adabiyoti", "Jahon adabiyoti", "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti" kabi fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiyada ingliz va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar ruhiyati tasviri bo'yicha olingan natijalar asosida:

ingliz va o'zbek bolalar nasrida o'smirlar ruhiyati talqinidagi o'ziga xosliklarning qiyosiy ifodasi, adiblarning o'smir obrazini yaratishdagi ijodiy mahorati, nutq qatlamlari, turli ijtimoiy-tarixiy qarashlar to'qnashuvi, vaziyatning shartlilik va metaforik mohiyati, poetik chekinishlar kabi shakl unsurlarining mazmunga mutanosibligida namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2021 yil 15 dekabrda №17.01/34-son ma'lumotnomasi). Natijada bolalar nasrida yozuvchi kontseptsiyasi, badiiy psixologizm, bu yo'nalishdagi asarlarning nazariy asoslari boyitilishiga erishilgan;

ingliz va o'zbek bolalar nasri kompozitsiyasi obrazlar tizimida g'oyaviy qarshi kurashga urg'u berilishi, lirik-intellektual uslubning qo'llanishi, gumanistik va demokratik g'oyalarning alohida ta'kidlanishi, epik hikoya qilish tarzining milliy xususiyati bilan belgilanganligiga oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP : "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 9-iyundagi №1732/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada innovatsion tadqiqot loyihasi asosida o'qituvchilarning kommunikativlik qobiliyatini yaxshilash, qiyosiy adabiyotshunoslikka oid bilimni oshirish va ta'lim tizimi jarayonini xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga erishilgan;

ingliz va o'zbek bolalar nasridagi o'smirlar hayoti, jinoyat ko'chasiga kirib qolgan bosh qahramonlar ruhiyati, o'smirlikka o'tish davridagi o'ziga xos dunyosidagi o'zgarishlarning badiiy-estetik ifodasi, hayotda o'z o'rnini topishga intilishi, shaxs sifatida shakllanish modeli (muallif yaratgan model) teran ifodalangan sarguzasht-fantastik, detektiv, avtobiografik, ma'rifiy-ta'limiy asarlarning badiiy-kompozitsion, uslubiy o'ziga xosliklarini qiyoslash orqali namoyon bo'lishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza", "Adabiy muhit" teleko'rsatuvlari, shuningdek, "Muloqot va munozara", "Qadriyatlar qadim beshigi" radioeshittirishlari stsenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 6-yanvardagi №1/7-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ko'rsatuvlar orqali bolalar yozuvchilarining asarlari, ijodiy merosi bilan bog'liq qiziqarli tahliliy materiallar yosh teletomoshabinlar va radioeshituvchilar e'tiboriga havola qilingan, teleko'rsatuvlarning mazmuni ilmiy dalillar bilan boyitilgan hamda ilmiy-ommaboplik xususiyati kuchaytirilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 127 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o'zbek bolalar nasrining ayrim xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobning ilk fasli *“Ingliz va o'zbek bolalar nasridagi mushtarak hamda o'ziga xos xususiyatlar”* tarzida belgilangan. Bolalar va o'smirlar adabiyoti tushunchasi mohiyatan davr taraqqiyotiga monand kengayib bormoqda. Ingliz va o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishidagi o'ziga xoslik avvalo, ulardagi o'xshash tamoyillar tadriji bilan belgilanadi. Barcha xalqlar bolalar adabiyoti ham dastlab xalq og'zaki ijodi ta'sirida, so'ngra mumtoz adabiyotdagi pandnomachilik, didaktik va ma'rifiy adabiyot, shuningdek, bolalar haqidagi, nihoyat ularga mo'ljallangan ixcham she'rlar, sodda syujetli hikoyalar, ko'proq ta'lim-tarbiya berishga asoslangan adabiyot ta'sirida maydonga kelgan.

Ingliz bolalar adabiyoti XVIII asrdayoq, o'zbek bolalar adabiyoti esa XX asrning 1920-1930-yillaridan e'tiboran adabiy janrlarning rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Jumladan, nasrning hikoya, qissa, roman janrlarining sarguzasht-fantastik, detektiv, avtobiografik yo'nalishlari hamon eng ko'p o'qiladigan adabiyotlar qatoriga kiradi.

Ingliz bolalar adabiyotida dastlab bolalarga mo'ljallangan adabiyot bo'lmagan. Kattalarga mo'ljallangan asarlarni ular ham qiziqish bilan o'qigan. Masalan, D.Defoning “Robinson Kruzo” (“Robinson Crusoe”), Servantesning “Don Kixot”, Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” (“Gullivers Travels”) kabi asarlarining qisqartirilgan nashrlarini shu ma'noda chop etish ehtiyoji tug'ilgan.<sup>12</sup>

Olimlar xulosasiga ko'ra, ilgari bolalar uchun maxsus adabiyot bo'lmagani tufayli o'smirlar adabiyoti bolalar adabiyotiga aylangan bo'lsa, keyinchalik,

---

<sup>12</sup> Будур Н.В., Иванова Э.И. Зарубежная детская литература. Учебное пособие. – Москва: Академия, 1998. – Б.95.

bolalarga mo'ljallangan asarlarni o'smirlar o'qiy boshlagan. Ya'ni, o'smirlarning "Garri Potter" ("Harry Potter") asariga qiziqishi kabi.

Ingliz adabiyotida esa bundagi o'ziga xos tafovutni aniqlash, ilmiy asoslash haqidagi nazariy qarashlar ancha ilgari mavjud. Kanadalik professor, xalqaro bolalar adabiyoti tadqiqoti jamiyatining sobiq prezidenti S.L.Beket o'zining "Crossover Fiction: Global and Historical Perspectives" (2009), "Red Riding Hood Around the World: An Anthology of International Retellings" (2014) tadqiqotlari orqali mazkur masalaning nazariy asoslarini oydinlashtirishga harakat qiladi.<sup>13</sup>

S.L.Beket ma'lumotiga ko'ra G'arb mamlakatlarida bolalar adabiyoti yoshiga qarab quyidagi guruhlariga ajratiladi: a) go'daklar va besh yoshgacha bo'lgan bolalar uchun; b) besh yoshdan sakkiz yoshgacha; d) sakkiz yoshdan o'n yoshgacha; e) yosh o'smirlar (12-18 yosh) f) o'spirinlar (18-30 yosh) uchun kitoblar yaratilgan.<sup>14</sup>

K.Tomlinson va L.Braunlarning ta'kidlashicha, "o'smirlar adabiyoti 11-18 yoshlar uchun mo'ljallangan adabiyot hisoblanadi. Ular o'smirlar adabiyotiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni sanab o'tishadi: a) badiiy asar voqealarining bosh qahramoni o'smir bolalardir; b) badiiy asar voqealari rivoji bosh qahramonga bog'liq bo'lib, bosh qahramonlarning xarakter xususiyati ularning nutqida – dialoglarda beriladi; d) o'smirlar adabiyotini tahlil qilishda ularning psixologik, kognitiv, ijtimoiy jihatdan takomillashib borishi muhokama qilinadi.<sup>15</sup>

Ingliz adabiyotida "krossover adabiyoti" ("Crossover literature") mavjud. Bunda bolalar adabiyotining o'smirlar adabiyotiga yoki o'smirlar adabiyotining bolalar adabiyotiga aylanishi nazariy jihatdan asoslangan. "Crossover" so'zi Angliyada 2004 yilda, Yevropada esa undan ham ilgari qo'llanilgan.

Professor S.L.Beketning ta'kidlashicha, hamma o'qishi uchun yaratilgan adabiyot turli xil tillarda turlicha ifodalansa-da, (masalan: "allalders litteratur", "libros para todas las edades", Titel, and Brückenliteratur) "krossover adabiyoti"ni "ko'priq adabiyoti" tarzida anglash mumkin.<sup>16</sup>

Krossover adabiyoti vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. T.E.Engreyni tadqiqotidan yana ma'lum bo'lishicha, AQShda o'smirlar va bolalar adabiyoti orasida qat'iy chegara qo'yilgan. Boshqa G'arb mamlakatlarida ham bunday chegara mavjud, faqat Italiyada bolalar va o'smirlar adabiyoti o'rtasida hech qanday chegara mavjud emas.<sup>17</sup>

Shu sababli, ingliz va o'zbek bolalar adabiyoti xususiyatlari uchun ayrim tafovutlar borligi aniqlandi: *"Bolalarbop barcha asarlarda yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o'y-kechinmalari, orzu-istaklari, voqelikka estetik munosabati o'z ifodasini topadi. Ularning aksariyati yozuvchilar (kattalar)*

<sup>13</sup>Theresia Enny Anggraini. The Characteristics of Child-to-Adult Crossover Literature. DISSERTATION Presented in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Philosophy in the Graduate School of The Ohio State University, 2015. – P.37-43.

<sup>14</sup>Sandra L.Beckett, Global and Historical Perspectives, Published December 17, 2009 by Routledge. – 360 p.

<sup>15</sup> Carol G.Lynch-Brown Carl M.Tomlinson. Essentials of Children's Literature. – Edinburgh Gate. Pearson Education Limited, 2014. – P.17.

<sup>16</sup> Theresia Enny Anggraini. The Characteristics of Child-to-Adult Crossover Literature. DISSERTATION Presented in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Doctor of Philosophy in the Graduate School of The Ohio State University, 2015. – P.37.

<sup>17</sup> O'sha joy. – P. 260.

tomonidan yaratilsa-da, voqelik bolalar dunyoqarashi nuqtai nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinadi va baholanadi”, – deyilgan tasnif umuman, o‘zbek bolalar adabiyoti haqidagi yaxlit tushunchadir.<sup>18</sup> Ingliz va o‘zbek bolalar adabiyotining yetakchi xususiyatlarida o‘smirlar olamida ro‘y berayotgan g‘alayonlar, kattalarga va jamiyatga munosabatidagi beqarorlik, o‘z-o‘zi bilan ruhiy kurash, iztiroblar iskanjasidagi asarlarga ehtiyoj orta bordi. Binobarin, ingliz va o‘zbek adabiyotida eng mashhur yozuvchilar eng yaxshi asarlarini bolalar va o‘smirlarga bag‘ishlaydilar. Eng asosiysi, o‘smirlar adabiyot yordamida, o‘z tafakkur qilish doirasini kattalardek kengaytira boshlaydilar.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*Bolalar nasrida qahramon va xarakter yaratish an‘analari*” tarzida belgilangan. Ingliz bolalar adabiyotini maxsus tadqiq etgan olim S.L.Beket “Hozirgi davr krossover adabiyotida personajlarni tahlil qilish jarayonida salbiy va ijobiy qahramonlar mavjud emas, balki murakkab va noaniq personajlarning borligiga ishonch hosil qilish mumkin”, – deb ta’kidlaydi.<sup>19</sup> Ma’lum bo‘lishicha, krossover adabiyotida hayvonlar va inson qiyofasidagi hayvonlar obrazidan foydalaniladi. Qahramonlarning yoshiga qarab kitobxon o‘ziga kerakli badiiy asarni tanlab oladi. Muallif badiiy asar qahramonlarining tashqi yoki ichki olamini o‘z kontseptsiyasiga ko‘ra tasvirlaydi. Vilda “Protagonist – jamiyatning qonun-qoidalariga bo‘ysunib yashaydigan kitobxonning “ideal” bosh qahramonidir”, – deb e’tirof etadi.<sup>20</sup>

Binobarin, hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligida badiiy asar qahramonlari vazifasiga ko‘ra: a) *protagonist* – badiiy asar bosh qahramoni; b) *antagonist* (raqib) – doimo protagonistga baxtsizlik va kulfat keltirishga urinib, unga turli-xil to‘siqlar qo‘yib, maqsadiga erishishiga yo‘l qo‘ymaydigan personaj; d) *deuteronist* (ko‘makchi obraz) – protagonistning yaqin do‘sti sanaladi, uni muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi; e) *foil* (xarakter xususiyati jihatdan bir-biroviga zid obrazlar) – bosh qahramonga qiyosiy tarzda beriladigan boshqa ikkinchi darajali obraz bo‘lib, bosh qahramonning orzu-intilishi va hayotidagi maqsadidan farq qiladi.<sup>21</sup>

Binobarin, yuqoridagi kabi qahramonlarning xarakter xususiyatlari ham bolalar nasrida muhim rol o‘ynaydi. Qahramon va xarakter badiiy asarlarda, jumladan, bolalar nasrida qahramonlarning asardagi o‘rni, vazifasi va yozuvchi kontseptsiyasiga ko‘ra o‘zgaruvchan va o‘zgarmas, rivojlanuvchi – dinamik ko‘rinishlarga ajratiladi. Masalan, *flat character* – (oddiy, turg‘un)<sup>22</sup> personajning faqat bir tomonini ko‘rsatib, juda oddiy ko‘rinishi bilan, uning qanaqa inson ekanligini kitobxon oldindan biladi. Masalan, ertaklardagi o‘gay ona obrazi doimo bag‘ritosh, yovuz obraz bo‘lgani kabi.

O‘zbek bolalar nasrida qahramonlar asar personajlari tizimida yetakchi mavqega ega bo‘lib, g‘oyaviy-badiiy kontseptsiyani shakllantirish va ifodalashda muhim rol o‘ynovchi obrazlardir. Asardagi asosiy voqealar asosiy qahramon

<sup>18</sup> Safarov O., Barakayev R., Жамилова Б. Болалар адабиёти. – Бухоро.: Дурдона, 2019. – Б.340.

<sup>19</sup> O‘sha joy. – P. 260.

<sup>20</sup> Wilda. Social Status towards the Characters in Dickens’ Great Expectation” A THESIS Submitted to the Faculty of Cultural Sciences Hasanuddin University, Indonesia, 2017. – P.22.

<sup>21</sup> <https://jerryjenkins.com/types-of-characters/>

<sup>22</sup> <https://www.britannica.com/art/flat-character>

atrofiga uyushtirilib, qolgan personajlar unga bog‘liq holda asar voqealariga kiritiladi. Qahramonning o‘rni asar janrini belgilovchi omil sifatida ham muhimlik kasb etadi. Aytaylik, hikoyada qahramon hayotidan birgina voqea, romanda qahramon hayotining murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimidagi katta bir davri, qissada qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinadi. Xususan, qissaning markazida hamisha qahramon turishi; ya’ni roman uchun qahramon vosita, qissa uchun maqsad ekanligi, shunga ko‘ra qissadagi barcha voqealar qahramon atrofida uyushtirilishi kabilar uning muhim badiiy-estetik qimmatini belgilaydi.<sup>23</sup>

Birinchi bobning uchinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek bolalar nasrida badiiy psixologizmning o‘rni”* deb nomlanadi. A.B.Yesin psixologizm tushunchasini ikki jihatdan talqin qilgan. Psixologizm badiiy asarda bevosita va bilvosita yo‘llar orqali ifodalanishi mumkin.<sup>24</sup>

Yozuvchi badiiy asari personajlarining psixologik holatini turli xil usullardan foydalanib tasvirlashi mumkin: a) *ochiq tarzda tasvirlash orqali (открытый психологизм)*<sup>25</sup> – personajlarning ichki dunyosini tasvirlash jarayonida badiiy asar personajlarining ruhiy holati ko‘rsatiladi. Charlz Dikkensning *“Katta umidlar ”* (*“Great Expectations”*) romani bosh qahramoni Pipning oddiy qishloq bolasi ekanligi uchun uning atrofdagilari xo‘rlashiga toqat qilolmay, azob chekar edi. Uning bu ruhiy holatini Charlz Dikkens Miss Hevishem xonadonida uchratib qolgan Estella ismli qiz bilan bo‘lgan munosabati orqali ochiq tasvirlaydi;<sup>26</sup> *“She came back, with some bread and meat and a little mug of beer. She put the mug down on the stones of the yard, and gave me the bread and meat without looking at me, as insolently as if I were a dog in disgrace. I was so humiliated, hurt, spurned, offended, angry, sorry – I cannot hit upon the right name sorry for the smart – God knows what its name was – that tears started to my eyes. The moment they sprang there, the girl looked at me with a quick delight in having been the cause of them. This gave me power to keep them back and to look at her: so, she gave a contemptuous toss – but with a sense, I thought, of having made too sure that I was so wounded – and left me.”*<sup>27</sup>

Yozuvchi humiliated (o‘kinib), hurt (og‘rinib), spurned (toptalib), offended (uyalib), angry (g‘azablanib), sorry (ijirg‘anib) so‘z va iboralari orqali bosh qahramonning ichki ruhiy holatini ifodalaydi.

b) *yashirin tarzda tasvirlash orqali (скрытый психологизм)* – peyzaj, portret, mimika va imo-ishora, badiiy detallar orqali badiiy asar personajlarining ruhiyati o‘rganiladi.

Jumladan, *“Sariq devning o‘limi”* romanida X.To‘xtaboev yashirin psixologizmdan foydalangan: *“Dalalarda bahor boshlanib qolibdi: ariqlar bo‘yidagi o‘tlar ko‘kargan, daraxtlar novdasi bo‘rtib kurtak chiqarishga moyil*

<sup>23</sup> Quronov D., Mamamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 378.

<sup>24</sup> Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: Учебное пособие. – 3-е изд. – Москва: Флинта, Наука. 2000. – С.248.

<sup>25</sup> Андреев А.Н. Целостный анализ литературного произведения. – Минск: Электронная книга БГУ, 2003. – С.88.

<sup>26</sup> Dikkens Ch. Katta Umidlar. – Toshkent: Ziyo Nashr, 2020. – B.78.

<sup>27</sup> Dickens Ch. – London : The Electric Book Company Ltd 20 Cambridge Drive, UK, – P.85.

bo'lib turibdi. Traktorlar gurillab yer haydaydi, yer tekislayotgan, ariq ochayotgan erkak-u xotinlar bizga tikilib, bir xillari qo'l siltab qolishadi. Qushlar eson-omon bahorga chiqib olganlariga sevinib, osmon-u falakda g'ujg'on o'ynashadi... To'satdan, kutilmaganda, qalbimga quvonch, shodlik to'lib, ashula aytib yuborganimni o'zim ham sezmay qolibman. Buvijonim dag'al qo'llari bilan sochimni silab: "Obbo tentagim-ey, ashula aytishni qachon o'rgana qolding?" – deb erkalab qo'ydi."<sup>28</sup>

Mazkur peyzaj jinoyatchi Odil battolning yer osti xazinasini boyliklari, o'g'irlangan hujjatlari davlat tasarrufiga o'tgach, asar bosh qahramoni Hoshimjonning "Sariq devni quvib" operatsiyasini muvaffaqiyatli yakun topganligi natijasida o'z qishlog'iga quvnoq kayfiyatda qaytganini yanada ta'sirchan ifodasi uchun xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning **"Ingliz va o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida o'smirlar ruhiyati ifodasi"** deb atalgan ikkinchi bobining ilk fasli *"Bolalar sarguzasht nasrida o'smirlar obrazi hamda ruhiyati tasviri"* deb belgilangan. Sarguzasht adabiyot kotsepsiyasi XIX asrda romantizm va neoromantizm oqimi doirasida paydo bo'lgan va o'ziga xos xususiyatlarni o'z ichiga olgan sarguzasht adabiyotga nisbatan tatbiq etiladi. Ushbu turdagi sarguzasht adabiyotning dastlabki namunalari qatoriga Jeyms Fenimor Kuperning ("Qizil Korsar"), Frederik Marriyetning ("Michman Tixonya") dengiz romantikalari, Aleksandr Dyumaning ("Uch mushketyor", "Yigirma yildan so'ng", "Vikont de Brajelon") tarixiy sarguzasht romanlari kiradi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sarguzasht janrda ijod etgan T.M.Reyd, R.Xaggard, J.Konrad (Buyuk Britaniya), G.Aymard, J.Vern, R.L.Stivenson, P.Benua (Frantsiya) kabi mualliflarning asarlari dunyoda mashhur bo'lgan. Sarguzasht yo'nalishdagi adabiyot harakatlarning jadal rivojlanishi, syujetning boyligi va asar bosh qahramonlari his-tuyg'ularining badiiy tasvirlanishi bilan ajralib turadi.

Sarguzasht asar "Escapist" adabiyotning bir turi bo'lib, u kitobxonga kundalik hayotdan qochib ketish uchun imkon yaratadi.<sup>29</sup> "Escapist" – o'yin-kulgi, yoki xayolot olamiga g'arq bo'lib, haqiqiy olamdan qochadigan kishi ma'nosini anglatadi.<sup>30</sup> Shu jihati bilan u fantastikaga xos bo'lib, sarguzasht-fantastik atamani qo'llanilishiga asos bo'la oladi. Ingliz bolalar adabiyotida sarguzasht asarlarning ko'plab namunalari yaratilgan bo'lib, undagi bosh qahramonlar ham asosan o'smir yoshdagi yigit-qizlardir. Ular kutilmagan, olis mamlakatlarga sayohat qilib, sir-asrorga boy xazinalar topishadi, kashfiyotlar yaratishga muyassar bo'lishadi, yoki noodatiy voqea-hodisalarni boshidan kechiradi.

Sarguzasht janrda yozilgan G'afur G'ulomning "Shum bola" va Mark Tvenning "Geklberri Finning boshidan kechirganlari" ("The Adventures of Huckleberry Finn") asarlari tahlil qilinib, bu ikkala asardagi bosh qahramonlarning ruhiyatidagi umumiy va farqli jihatlari o'rganildi. G'afur G'ulom va Mark Tven asarlaridagi o'smir bolalarning ruhiy holatlarini kitobxonlarga turli usullar bilan

<sup>28</sup> To'xtaboyev X., Sariq devning o'limi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B.180.

<sup>29</sup> Hasa. What is Escapist literature//October 21,2016.

<sup>30</sup> <https://www.dictionary.com/browse/escapist>

yetkazib berishdi. Gʻafur Gʻulom “Shum bola” qissasi uchun yumor usulini tanlagan boʻlsa, Mark Tvenning “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” romanida picaresque usuldan foydalanadi. Bunda yozuvchi roman voqealarini bosh qahramon tili va tafakkuriga mos ravishda bayon qiladi.<sup>31</sup> Picaresque romanlarda<sup>32</sup> – jasur, kamolotga erishish uchun doimo intiladigan, aql-zakovatga boy badiiy asar protagonistlarining sarguzashtlari bayon etiladi. Bolalar nasrining sarguzasht yoʻnalishida ham bosh qahramonlarning shaxs sifatida shakllanishini kuzatish mumkin.

X.Toʻxtaboyev qalamiga mansub sarguzasht-fantastik asarlarida bu jihat yorqin koʻrinadi. Uning asarlaridagi bosh qahramonlari nohaqlik, poraxoʻrlik, zulm va yovuzlikka qarshi kurashadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Bolalar detektiv asarlarida qahramon ruhiyati talqini*” deb nomlanib, unda ingliz va oʻzbek bolalar detektiv asarlaridagi qahramon ruhiyatining tadriji haqida soʻz boradi.

Ingliz detektiv fantastikasining yuksalib borgan davri 1920-1930 yillarda avj olib, “The Golden Age of Detective Fiction” (Detektiv fantastikaning Oltin davri) deb ataladi. Bu davrda detektiv janrda ijod qilgan yozuvchilar A.Kristi, G.K.Chesterton, E.K.Bentli kabi yozuvchilar oʻzlarining detektiv asarlari bilan badiiy adabiyotning takomillashib borishiga oʻz hissalarini qoʻshdilar. Har bir detektiv janrda ijod qilgan yozuvchilar oʻz asarlarini yozish jarayonida qotillik hodisalarini oʻrganib, tahlil qilib, qotillikni fosh etadigan detektiv-tergovchini bosh qahramon qilib olishgan. Masalan, A.Kristi Erkyul Puaro va Miss Marplni, Artur Konan Doyl Sherlok Xolmsni bosh qahramon sifatida tanlashgan.

Oʻzbek adabiyotiga detektiv janrining kirib kelishi haqida turli-xil mulohazalar mavjud. Olimlarning aksariyati T.Malikning “Shaytanat” asarini jahon detektivi bilan boʻylasha oladigan ilk oʻzbek detektivi sifatida talqin qilishadi. Binobarin, Sh.Sulaymonov qator munaqqid va adabiyotshunoslarning qarashlariga munosabat bildirar ekan, u real voqelikdan kelib chiqib fikr yuritadi. Shunga koʻra, XX asr boshlarida ilk belgilari koʻzga tashlangan oʻzbek realistik detektiv nasri 1960-70-yillarga kelib, jiddiy sifat oʻzgarishlari sari yuz burgani eʼtirofqa loyiqdir. Yashar Kamolning “Ilonni oʻldirsalar” va T.Malikning “Alvido, bolalik” detektiv qissalaridagi jinoyat olamiga qadam qoʻygan oʻsmirlar ruhiyati shu munosabat bilan teran tahlil etilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “*Avtobiografik asarlarda oʻsmirlar ruhiyatining oʻziga xos ifodasi*” deb nomlangan. Avtobiografik asarlarda yozuvchi oʻz hayoti voqea-hodisalarini roman, hikoya yoki qissa koʻrinishida yozib qoldiradi. Ingliz adabiyotida esa avtobiografik asarlarning maʼlum kompozitsion va badiiy xususiyatlari tafovutlanadi.

1. *Muallif konsepsiyasini ifodalovchi personaj* – badiiy asarlarda yozuvchi oʻz konsepsiyasini ilgari surish maqsadida xayoliy personajdan foydalanishi mumkin. Muallif bosh gʻoyasini ilgari surish uchun ushbu personaj muhim rol oʻynaydi. Masalan, “Geklberri Finning boshidan kechirganlari” romanida M. Tven Geklberri

<sup>31</sup> Lionel Trilling. Mark Twain’s Colloquial Prose Style. From the Liberal Imagination. October 08, 2019.

<sup>32</sup> <https://www.merriam-webster.com/dictionary/picaresque>

Finning yaqin do'sti qora tanli Jimni qullikka qarshi bo'lgan bir namoyondasi sifatida kitobxonlarga taqdim etdi.

2. *To'liq avtobiografik asarlar* – muallif o'z hayoti voqealarini xotiralab, avtobiografik asarlarini yozadi. Yozuvchining o'z hayoti voqealarini badiiylashtirgan holda gavdalantirib, asarida bosh qahramon sifatida o'zini tanlaydi. Bunday turdagi asar voqealarining xronologik tartibiga e'tibor beriladi. Masalan, M.Tvenning "Mark Tvenning avtobiografiyasi" ("The Autobiography of Mark Twain") romani yozuvchining tug'ilishidan o'limigacha bo'lgan voqealarni qamrab oladi.

3. *Qisman avtobiografik asarlar* (semi-autobiographical novels)<sup>33</sup> – qisman avtobiografik yoki qisman fantastik asarlar turiga mansub bo'lib, unda muallif hayotidagi voqealarini badiiylashtirilgan holda hikoya qiladi. Charlz Dikkensning "David Copperfield" asari avtobiografik romanlarning qisman avtobiografik (semi-autobiographical) turiga mansub bo'lib, unda yozuvchi o'zining xayoliy va haqiqiy hayotini birlashtiradi.

Devid Kopperfild yoshligida o'gay otasining zulmidan qiynalib yashar edi. Devidni o'gay otasi uni "savodli" qilish uchun Salem maktabiga o'qishga jo'natadi. Bu yerda ham o'gay otasining topshirig'i bilan uni maktab direktori va o'quvchi bolalar mazax qilishar edi. Devid Kopperfildning orqasiga "Ehtiyot bo'linglar, bu bola boshqalarni tishlaydi!" deb yozilgan plakatni osib qo'yishadi. Har gal bola bu plakat bilan maktab hovlisiga chiqqanida, hamma bolalar uni ushlab, do'pposlashar va ko'ngliga ozor berib, uni mazax qilishar edi. Devid bu kabi xo'rlanishlardan ruhan azob chekar, o'zini himoyasiz, ojizdek tasavvur qilar edi.

Ch. Dikkens ochiq psixologizmdan foydalanib, bosh qahramonning yozgan xatida ruhiy azoblanish holatini beradi: *"What I suffered from that placard, nobody can imagine. Whether it was possible for people to see me or not, I always fancied that somebody was reading it. It was no relief to turn round and find nobody; for wherever my back was, there I imagined somebody always to be. That cruel man with the wooden leg aggravated my sufferings. He was in authority; and if he ever saw me leaning against a tree, or a wall, or the house, he roared out from his lodge door in a stupendous voice, 'Hallo, you sir! You Copperfield! Show that badge conspicuous, or I'll report you!' I recollect that I positively began to have a dread of myself, as a kind of wild boy who did bite."*<sup>34</sup>

